

“TOY NONI” HIKOYASI SARLAVHASI

Urganch davlat universiteti talabasi

Bardiyeva Gulasal Umidbek qizi

Annatsiya: *Ushbu maqolada Ismoil Ollaberganning “To’y noni” hikoyasining qisqacha tahlili orqali asarning nega bunday nomlanganligi, mazmuni va sarlavhasining aloqadorligi yoritib berilgan.*

Kalit soʻzlar: *asar sarlavhasi, asar mazmuni, bosh qahramon.*

Annotation: *In this article, through a brief analysis of the story "Wedding Bread" by Ismail Ollabergan, it is explained why the work is named as such, the content and the relationship of the title.*

Key words: *the title of the work, the content of the work, the main character.*

Аннотация: *В данной статье посредством краткого анализа рассказа Исмаила Оллабергана «Свадебный хлеб» объясняется, почему произведение названо именно так, содержание и связь названия.*

Ключевые слова: *название произведения, содержание произведения, главный герой.*

Har bir asarning oʻziga xos, uning mazmuniga yoxud anglatadigan maʼnosiga mos holda tanlangan sarlavhasi mavjud boʻladi. Sarlavha asar uchun muhim qism hisoblanadi. Chunki shunday asarlar borki, uning sarlavhasini oʻqishi bilan kitobxon qalbida oʻsha asarga boʻlgan qiziqish uygʻonadi, uning nega bunday nomlanganini, kitob voqealari qanday kechganligini, nima haqida ekanligini bilgisi keladi, uni oʻqishga intiladi. Shuningdek, ayrim asarlarning sarlavhasi va mazmuni mos kelmaydi, yaʼni bir-biriga yaqin boʻlmaydi, sarlavhani oʻqiganimizda mutlaqo boshqacha tasavvur uygʻonsa, asarning mutolaasidan soʻng boshqa mazmuni ilgʻab olamiz. Jumladan, Abdulla Qahhorning "Tobutdan tovush" komediyasining sarlavhasini eshitganda kitobxon

qandaydir o'zgacha ruhdagi asarni tasavvur qiladi, ammo asar yumorga asoslangan bo'lib, sarlavhasidan anglashiladigan ilk fikrga zid mavzuda yozilgan. Shunday bo'lsa-da, har qanday badiiy adabiyot namunasiga qo'yilgan nom uning ichki mazmuniga bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'ladi, ya'ni asarning qayeridadir sarlavhasiga ishora qilinadi, faqat uning nomidan mazmuni bilinib turishi yoki ko'chma ma'nolarda bo'lib, asar o'qilgandan so'nggina nega unday nomlanganligi, sarlavha va mavzu orasidagi hamohanglik ma'lum bo'lishi mumkin.

Asar sarlavhasi. Aniqlik va qisqalik nasrning birinchi ustunligidir. U fikrni talab etadi, busiz go'zal ifoda hech narsaga xizmat qilmaydi" ekan, asar sarlavhasi bir yoki bir necha so'zda ifodalanishi, yuzlab sahifalarga sochilgan mazmuni o'zida aniq jamg'arishi, nomlanishidanoq o'quvchini o'ziga jalb qilishi lozim. (<https://azkurs.org/toshkent-davlat-sharqshunoslik-universiteti.html?page=4>).

Ayrim asarlarning sarlavhasi unlardagi bosh qahramonlar nomi bilan atalishi ham mumkin. Adabiyotimizda bunday asarlar ko'plab uchraydi. Fikrimizga da'dil sifatida "Navoiy" (Oybek), Zaynab va Omon" (H. Olimjon), "Mirzo Ulug'bek" (M. Shayxzoda), "Shiroq" (Mirkarim Osim) kabi asarlarni keltirish mumkin.

"To'y noni" hikoyasining sarlavhasini tanlashda asardagi oddiy detal asos qilib olingan va asarning butun mazmuniga hamohanglik hosil qilgan. Chunki asarning epizodik obrazi hisoblangan Tolpush jinni timsolining tilidan aytiladigan "To'y noni" birikmasida bosh qahramon Ovodonning butun orzu-umidlari, istak-maqсадlari, uzoq kutgan baxti mujassamlashgan edi, shundandir adib ijod namunasini nomlashda asar oxiridagi oddiy detaldan foydalangan.

"To'y noni" birikmasi asarning eng so'ngida Davron va Ovodonning uchrashganida ilk bor qo'llanadi va bu so'zlarni eshitishi bilan Ovodonning ko'zlarida yosh paydo bo'ladi, chunki u o'ttiz yoshga yetay deb qolgan bo'lasada, barcha tengdoshlari turmush qurib, ko'pchiligi bolali bo'lishlariga qaramay, uning baxti ochilmagandi, uning baxt sahifalari kechikkandi. Shuning uchun Ovodon bunday kutilmagan voqeadan hayratga tushadi, ich-ichidan quvonadi, bu

tuygʻu koʻzlaridagi tomchilar orqali jillvlanadi. Qachonlardir qoʻlini soʻragan inson, ammo oʻshanda rad etilsa-da, umidini uzmay yana necha yillardan soʻng qaytib kelib, u haqida surishtirgan, oʻzi ham oila qurmay Ovodonga yana oila qurish taklifini bergan inson Davronning paydo boʻlishi u uchun moʻjiza edi goʻyo.

Hikoyaning mazmuni toʻy boʻlishi haqida bir qizning orzu-umidlari, oʻy-xayollari orqali kechar ekan, yozuvchi asar oxirida shu "Toʻy noni" jumlasini orqali mazmunga bogʻliq detal yaratadi va uni hikoya sarlavhasiga chiqaradi.

Asarda berilgan voqealar rivoji goʻzal tarzda olib boriladi, yaʼni tasvirning turli davrga koʻchishi, undagi qahramonlarning unchalik koʻp emasligi ham hikoyaga oʻzgachalik baxsh etadi.

Bir-biri bilan tilsiz soʻzlashayotgan ikki kimsani Tolpushning ovozi bexos choʻchitib yubordi.

- Toʻy noni ber, toʻy noni! - oʻz odaticha titrabgina turgan Tolpush jinni ularga bir zum qarab turdi-da choʻntagini kovlayotgan yigitga bir oʻqrayib joʻnab qoldi. Uning ortidan qoʻlida pulini siqimlab angraygancha qarab turgan Davron birozdan soʻng qiz tomonga oʻgirildi.

- Ovodon! - qizning ismi yigitning boʻgʻzidan jaranglab chiqdi. - Kel, shu Xudo suyganning gapini qilaylik! -Davron qizning bilagiga qoʻl choʻzdi.¹

Ismoil Ollaberganning " Toʻy noni" hikoyasi tanlangan sarlavhasi, oʻzining mazmuni va maʼno koʻlami bilan alohida jaralib turadi. Hikoyaning soʻngi bevosita uning sarlavhasi, yaʼni toʻy noni bilan bogʻlanib ketadi. Ovodonning orzusi ushalib, u ham boshqalar kabi oq libos kiyib toʻyi boʻladi va oʻsha ilk bor uning qalbiga dunyolarcha quvonch bagʻishlab bu soʻzlarni aytgan Tolpush jinni barchaga toʻy noni tarqatadi.

Shuningdek, Tolpushning Ovodonning kelinoyisiga non bermay oʻtishida ham maʼno bor, chunki bu obraz his- tuygʻu, insoniylik, rahm tuygʻularidan yiroqda tasvirlanadi. Bu uning quyidagi gaplaridan ham maʼlum boʻladi.

¹ "Oʻzbek adabiyoti va sanʼati" gazetasi. 2012-yil, 16-son.

O‘zim sig‘magan hovliga qozoq ham tuyasi bilan kelibdi! Kuchukni nima qilasizlar!? Darrov olgan joyingizga tashlab kelinglar! Erkak kuchuk bo‘lsa ham bir gap edi, bunisi kimga ham kerak. Nima qilasizlar bu ko‘z kuyigini!

Bu gap ko‘zlari munchoqdaygina kuchuk atrofida girgittan bo‘layotgan jiyanlariga zarracha kor qilmadi. Ammo Ovodonga og‘ir botdi. Shu paytgacha bu ayolning gaplariga sira parvo qilmasdi, achchiqroq gap aytganda ham akasini o‘ylab kelinoyisiga kulib javob berardi.²

Kelinoyisining bu og‘ir xarakteriga Ovodon e‘tibor bermaslikka harakat qiladi va sabr bilan o‘z baxtini kutadi. Binobarin, asar so‘ngida sabriga javoban go‘zal javob oladi, uzoq kutgan baxtini, hayotdagi o‘z o‘rnini topadi.

"To‘y noni" hikoyasida asosiy mazmun shundan iboratki, inson o‘zi uchun berilgan taqdirga doim rozi bo‘lib yashashi, barchaning hayotida yaxshi kunlar ertami, kechmi baribir bo‘lishi, faqat kimdir sabr bilan uzoq kutishi, yana kimdir esa oson erishishi, umidini uzmaganlar, yaxshi kunlarning, baxtli onlarning bo‘lishiga ishonganlar buning ro‘yobini, albatta, ko‘rishlari hikoya mazmunini tashkil etgan. Yozuvchining bu asaridagi har bir jumla insonni o‘yga toldiradi, unga qandaydir sokinlik his qildirib, xulosa chiqarishga undaydi, qanday yashash, qay vaziyatda nima qilish lozimligini uqtirmoqchi bo‘ladi.

“To‘y noni” hikoyasi o‘zidagi go‘zal tasvir kuchi va g‘oyaviy-badiiy jihatdan yetuk darajadali bilan kitobxonlar ko‘nglidan joy ola bilgan hamda shu bilan Ismoil Ollabergan Xorazm vohasining yana bir o‘tkir qalam sohibi, iste‘dod egasi ekanligini ko‘rsatib bera oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://azkurs.org/toshkent-davlat-sharqshunoslik-universiteti.html?page=4>
2. “O‘zbek adabiyoti va san‘ati” gazetasi. 2012-yil, 16-son.

² “O‘zbek adabiyoti va san‘ati” gazetasi. 2012-yil, 16-son.